



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Наргиза Музафаровна Бабаева Жаҳон лизинг хизматлари бозорининг ҳолати таҳлили ва ўзбекистонда унинг ривожланиш тенденциялари.	70
Рамз Зоиржон ўғли Мухаммадиев Тиббий хизмат сифатини яхшилашда юқори технологиялар ўрни.	77
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Гульнара Мардиевна Шадиева, Бону Бахтиёрвна Давронова Туризм в Узбекистане: драйвер экономического роста и социальной стабильности	80
Maksuda Valeriyevna Israilova Sog'lomlashtirish turizmning mohiyati va rivojlanish tarixi.	84
Dilshod Usmanovich Ruzmanov Turizmда madaniy-tarixiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish	90
Nargiza Akbardjonovna Abduvaxidova Barqaror turizm rivojlanishida muammo va imkoniyatlar	94
Фарход Абдихидович Бекназаров, Азиза Пирмаматовна Махмудова Мамлакатимиз экотизими ва маданий меросини комплекс сақлаш ҳамда минтақада экотуризмни ривожлантиришда геопапркларнинг ўрни	99
Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova Iqtisodiyotni raqamlashtirishda turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	103
Камилла Бахромовна Суюнова, Олтинбек Бобирович Умаров Роль маркетинговых стратегий в развитии цифровизации сферы туризма в Узбекистане	108
Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Sitara Otabekovna Xamroyeva Jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlar turizmini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	111
Parvina Asliddin qizi Xolmatova Hududlarda ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	114
Xasan Ibragimovich Turdibekov O'zbekiston sharoitida overturizmni baholash uslubiyatini takomillashtirish	118
Aziza Yusufbekovna Talibova O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari	122
Нодир Нозимович Негматов Роль визуальных и культурных стимулов Узбекистана в формировании лояльности туристов: нейромаркетинговый подход.	127
Nodirjon Abduxalil o'g'li Xoliqov, Ibragim Xudayarovich Nimatov O'zbekiston Respublikasi turistik salohiyati: tahlillar va istiqbollar	132
Азиза Пирмаматовна Махмудова, Ситора Отабековна Ҳамраева Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда Big Data технологияларидан фойдаланиш йўллари	138
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Nigina Marupovna Usmanova, Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova Qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish va korxonada boshqaruvni takomillashtirish yo'llari	140
Gulshan Akmalovna Abduvohidova Tashkilot intellektual resurslarini boshqarish tamoyillari	145

Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINI TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning turizm sohasiga ta'siri, zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar va ularning samaradorlik darajasi o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda turizm va mehmonxona sohasida raqamlashtirish jarayonining joriy holati tahlil qilinib, amalga oshirilgan islohotlar va tadbirlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, turizm, mehmonxona xizmatlari, raqamlashtirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, onlayn xizmatlar, elektron tijorat.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni jahon miqyosida jadal rivojlanib, turizm va mehmonxona xizmatlari sohasi ham ushbu jarayondan chetda qolmayapti. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirish, mijozlarga qulaylik yaratish hamda biznes jarayonlarini optimallashtirish imkonini bermogda.

O'zbekiston Respublikasida ham turizm infratuzilmasini rivojlantirish va raqamlashtirish borasida qator islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasida turizm sohasini rivojlantirish, mehmonxona xizmatlarini raqamlashtirish va xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Shu bilan birga, mehmonxona va turizm xizmatlarini modernizatsiya qilish, elektron to'lov tizimlarini keng joriy etish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish muhim yo'nalishlar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Shu sababli, turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkil etishda raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va xalqaro tajribani o'rganish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmogda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuda xorij olimlaridan R. Law, R. Leung, D. Buhalis [10], U. Gretzel, M. Sigala, Z. Xiang, C. Koo [11] kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borayotgan bo'lsa, yurtimiz olimlaridan N. Abdulbekova [8], M.X. Xamitov [8], K.A. Sharipov¹, A.A. Abduvaliyev, O.Ch. Pardayev² kabi olimlar mavzuning ahamiyati va ilmiy jihatlarini yoritishda katta hissa qo'shmoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tahlil amalga oshirilgan. Tadqiqot jarayonida SWOT tahlil, taqqoslash, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy dunyoda raqamlashtirish barcha iqtisodiy tarmoqlarda tubdan o'zgarishlarni keltirib chiqarmogda. Ayniqsa, turizm va mehmonxona xizmatlari sohasida bu jarayon tez sur'atlar bilan rivojlanmogda. Ilgari sayohatchilar uchun mehmonxona band qilish, transport xarid qilish yoki sayohat yo'nalishlarini rejalashtirish uzoq va murakkab jarayon bo'lsa, bugungi kunda ushbu operatsiyalar atigi bir necha daqiqada onlayn rejimda amalga oshirilmogda.

Turizm iqtisodiyotining o'ziga xos jihati – uning xizmatlar bilan bog'liq ekanligidadir. Mehmonxona tizimida raqamli texnologiyalar joriy etilishi xizmat sifatini oshirish va mijozlar ehtiyojlariga yanada moslashish imkonini beradi. Masalan, onlayn bron qilish tizimlari mijozlar uchun xizmatni osonlashtirib, mehmonxonalariga mijozlarni jalb qilish imkoniyatini kengaytirdi. Hozirgi kunda Airbnb, Booking.com, Expedia kabi global platformalar dunyo bo'ylab mehmonxona xo'jaliklarining daromadini oshirishda katta ahamiyat kasb etmogda. Raqamlashtirish, shuningdek, mehmonxonalar va turistik kompaniyalarning operatsion xarajatlarini qisqartirishda ham samarali vositaga aylandi. Avvallari har bir bron qo'lda tasdiqlanib, mehmonlarga xizmat ko'rsatish inson omiliga bog'liq bo'lsa, bugungi kunda sun'iy

¹ https://doctorant.tsue.uz/wp-content/uploads/2024/07/KONFERENSIYA-25-12-2023.pdf?utm_source

² <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamlashtirish-sharoitida-o-zbekiston-turistik-geoportal-tizimining-tashkiliy-arxitekturasi/viewer>

intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar bu jarayonni o‘z zimmasiga olmoqda. Masalan, ko‘plab mehmonxonalarda mijozlarni qabul qilishda avtomatlashtirilgan ro‘yxatdan o‘tish tizimlari va AI-chatbotlar yordamida xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan.¹

Iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda, turizm sohasida raqamlashtirish jarayoni daromadlarni oshirish va tannarxni kamaytirish orqali katta natijalarga olib keldi. Masalan, raqamli to‘lov tizimlarining joriy etilishi orqali sayyohlar uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Elektron tranzaksiyalarning afzalligi shundaki, ular tez, xavfsiz va shaffof bo‘lib, mehmonxonalarning moliyaviy operatsiyalarini optimallashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli marketing va mijozlar bilan interaktiv aloqalar mehmonxona biznesining rivojlanishida muhim rol o‘ynay boshladi. Ilgari reklama va marketing asosan an‘anaviy vositalar (gazetalar, jurnallar, bannerlar) orqali olib borilgan bo‘lsa, hozirda ijtimoiy tarmoqlar, sun‘iy intellekt asosida ishlab chiqilgan shaxsiy takliflar va Big Data tahlil vositalari mijozlarning ehtiyojlarini oldindan tahlil qilib, ularga mos takliflarni berish imkonini yaratmoqda. Raqamlashtirish jarayoni faqatgina mehmonxonalar uchun emas, balki turistik agentliklar va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar uchun ham katta afzalliklarga ega. Masalan, onlayn sayohat yo‘nalishlari, virtual gid xizmatlari va AI yordamida shaxsiylashtirilgan sayohat rejalari hozirgi kunda ommalashmoqda. Sayohatchilar endilikda o‘z marshrutlarini virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida oldindan sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda.²

Yuqoridagi tadqiqotchilar fikridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, turizm va mehmonxona xizmatlarini raqamlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo‘lib, xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon korxonalar uchun nafaqat tijorat daromadlarini oshirish imkonini beradi, balki global miqyosda turizm tarmog‘ining rivojlanishiga ham turtki bo‘ladi.

Turizm va mehmonxona xizmatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi so‘nggi yillarda sezilarli natijalarni berdi. Avvallari bu soha an‘anaviy xizmat ko‘rsatish tamoyillariga asoslangan bo‘lsa, hozirda ko‘plab mehmonxonalar va turistik kompaniyalar xizmatlarni avtomatlashtirish, mijozlarga shaxsiylashtirilgan yondashuv yaratish va operatsion jarayonlarni soddalashtirish uchun ilg‘or texnologiyalarni faol qo‘llamoqda. Dunyo bo‘ylab mehmonxonalarda onlayn bron qilish tizimlari asosiy xizmat ko‘rsatish vositasiga aylanib, mehmonlarga xizmatlar bo‘yicha real vaqt rejimida ma‘lumot olish, xonalarni tanlash va elektron to‘lovni amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. Bu esa nafaqat mijozlar uchun qulaylik, balki mehmonxonalar uchun ham ish jarayonlarini optimallashtirish imkonini berdi. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi mehmonxona biznesida operatsion xarajatlarni kamaytirish, resurslarni samarali taqsimlash va inson omilini qisqartirishga yordam berdi. Masalan, sun‘iy intellekt asosida ishlovchi chatbotlar mijozlar bilan aloqa o‘rnatishda, ularga kerakli ma‘lumotlarni tezkor yetkazishda va bron qilish jarayonlarini boshqarishda qo‘llanmoqda. Bu esa mehmonxonalariga 24/7 xizmat ko‘rsatish imkoniyatini yaratib, inson resurslariga bo‘lgan talabni kamaytirishga yordam berdi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan ro‘yxatdan o‘tish tizimlari va elektron kalit kartalar mehmonlarga xizmat ko‘rsatish jarayonini tezlashtirib, ularning tajribasini yanada yaxshiladi.³

Bugungi kunda elektron to‘lov tizimlarining rivojlanishi turizm sohasida tranzaksiyalarni yanada tezkor va xavfsiz amalga oshirishga imkon yaratmoqda. Mehmonxonalar va turistik kompaniyalar kredit kartalari, kriptovalyutalar va raqamli hamyonlar orqali to‘lov qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu sayohatchilar uchun qulay sharoit yaratmoqda. Xususan, blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi orqali firibgarlik xavfi kamaytirilib, tranzaksiyalar shaffofligi ta‘minlanmoqda. Shu bilan birga, Big Data texnologiyalaridan foydalanish orqali mehmonxonalar mijozlarning sayohat qilish odatlarini tahlil qilib, ularga moslashtirilgan xizmatlarni taklif etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa mehmonxona xo‘jaliklari uchun

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamlashtirish-sharoitida-o-zbekiston-turistik-geoportal-tizimining-tashkiliy-arxitekturasi/viewer>

² <https://cyberleninka.ru/article/n/suniy-intellektning-turizm-sohasida-xizmat-korsatish-sifatini-oshirishdagi-orni/viewer>

³ https://api.ziynet.uz/uploads/books/10000014/PgdBVswHaAL25jh.pdf?utm_source

nafaqat xizmat sifatini oshirish, balki daromadlarni ham optimallashtirishga yordam bermoqda. Raqamli marketing va mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni takomillashtirish ham turizm sanoatida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. An’anaviy reklama vositalari o‘rnini bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan shaxsiy takliflar hamda mijozlarga yo‘naltirilgan reklama kampaniyalari egalladi. Turistik kompaniyalar va mehmonxonalar mijozlarning internetdagi harakatlarini kuzatib, ularga eng mos keluvchi xizmatlarni tavsiya qilish imkoniga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, virtual reallik (VR) texnologiyalari orqali sayyohlar o‘zlari borishni xohlagan joylarni oldindan ko‘rib chiqishlari, turistik obyektlar bilan tanishishlari va kelajak sayohatlarini rejalashtirishlari mumkin.¹

Turizm sohasida raqamlashtirish jarayoni shunchaki texnologik taraqqiyot emas, balki xizmat ko‘rsatishning global miqyosda o‘zgarishiga olib kelayotgan inqilobdir. So‘nggi yillarda dunyoning rivojlangan davlatlarida mehmonxona va turizm xizmatlarining deyarli barcha bosqichlari raqamlashtirilgan. O‘zbekiston ham bu borada muhim qadamlar tashlamoqda. Xususan, mamlakatimizda elektron viza tizimining joriy etilishi chet ellik sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Turizm obyektlari bo‘yicha onlayn ma’lumot olish, mehmonxonalar va aviachiptalarni oldindan bron qilish, elektron to‘lov tizimlari orqali hisob-kitob qilish xizmatlari faol rivojlanmoqda. Biroq, hali ham infratuzilma, axborot xavfsizligi va malakali IT-mutaxassislar yetishmovchiligi kabi muammolar mavjud.

Bu yutuq va kamchiliklarni aniq ilmiy ifodalash maqsadida, quyidagi SWOT tahlil ishlab chiqildi.

1-jadval

Turizm va mehmonxona xizmatlarini raqamlashtirishning SWOT tahlili²

Kuchli tomonlar	Bugungi kunda turizm va mehmonxona xizmatlari sohasida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi xizmatlar sifatining oshishiga katta hissa qo‘shmoqda. Xususan, onlayn bron qilish tizimlari, avtomatlashtirilgan xizmatlar va sun’iy intellekt yordamida ishlaydigan virtual gidlar sayyohlarga qulay sharoit yaratmoqda. Buning natijasida mehmonxona va turistik agentliklarning operatsion xarajatlari kamayib, xizmatlar ko‘rsatish sifati oshmoqda. Shuningdek, real vaqt rejimida mijozlar bilan aloqa qilish imkoniyati taqdim etilishi, ularning talablariga moslashish va individual yondashuvni kuchaytirish imkonini bermoqda.
Zaif tomonlar	Shunga qaramay, texnologik infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi, ayniqsa, ayrim chekka hududlarda internet sifati pastligi muhim muammo bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, malakali IT-mutaxassislarning yetishmovchiligi turizmni raqamlashtirish jarayonini sekinlashtirmoqda. Kibertahdidlar va firibgarlik xavfi ham dolzarb masala bo‘lib, mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun qo‘shimcha choralar ko‘rishni talab qiladi.
Imkoniyatlar	Raqamlashtirish jarayoni xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Onlayn platformalar orqali global mijozlarni jalb qilish imkoniyati oshib, turizm biznesining jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston hukumati tomonidan turizm sohasida raqamlashtirish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Masalan, “Raqamli Uzbekistan 2030” dasturi doirasida turistik xizmatlar uchun mobil ilovalar va sun’iy intellekt bilan ishlovchi virtual gidlar joriy etilmoqda. Raqamli texnologiyalar, shuningdek, ekologik jihatdan barqaror turizmni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, qog‘oz sarfini kamaytirish va xizmatlarni onlayn ko‘rsatish orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.
	Biroq, raqamli jinoyatlar va xakerlik hujumlari tufayli mijozlarning shaxsiy

¹ https://doctorant.tsue.uz/wp-content/uploads/2024/07/KONFERENSIYA-25-12-2023.pdf?utm_source=

² Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

<p>Tahdidlar</p>	<p>ma'lumotlarini himoya qilish tobora murakkablashib bormoqda. Bundan tashqari, xalqaro yirik mehmonxona tarmoqlari va turistik platformalar mahalliy biznesga jiddiy raqobat tug'dirishi mumkin. Kompaniyalar doimiy ravishda yangi texnologiyalarga moslashishi talab qilinadi, bu esa ulardan katta investitsiyalarni talab etadi. Raqamli infratuzilmaning jadal rivojlanishi bilan zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtira olmagan mehmonxonalar va turistik kompaniyalar orqada qolish xavfi bilan duch keladi.</p>
-------------------------	---

Yuqorida keltirilgan SWOT tahlil shuni ko'rsatadiki, turizm va mehmonxona xizmatlarini raqamlashtirish soha uchun katta imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, muhim muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalar xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, biroq, texnologik infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi, malakali kadrlar tanqisligi va axborot xavfsizligi masalalari hal qilinishi zarur bo'lgan asosiy masalalar bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajribadan samarali foydalanish va davlat ko'magida amalga oshiriladigan islohotlar raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirishi mumkin deb hisoblaymiz.

Turizm va mehmonxona xizmatlarining rivojlanishi uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga yangicha yondashuv zarur. Raqamli transformatsiya jarayonida bu sohada barqaror o'sish va samaradorlikni ta'minlash uchun korxonalar resurslarni boshqarish va xizmat ko'rsatish tizimlarini qayta ko'rib chiqishlari lozim. Mexanizmlarni takomillashtirishda, birinchi navbatda, xizmatlarning sifatini oshirish va iste'molchilarning ehtiyojlariga moslashish muhimdir. Turizm va mehmonxona korxonalari uchun innovatsion xizmatlarni shakllantirish orqali yangi bozorlarni o'zlashtirish imkoniyatlari mavjud. Masalan, mintaqaviy turizmni rivojlantirish uchun mahalliy diqqatga sazovor joylarni sayyohlar uchun qulay va iqtisodiy jihatdan maqbul paketlar shaklida taqdim etish lozim. Bu xizmatlarning soddaligi va foydalanish qulayligini oshiradi, ayniqsa ichki turizmni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategiyalar bilan uyg'unlashadi.¹

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning yana bir muhim jihati – turizmni rivojlantirishda ta'lim tizimi va mahalliy aholini jalb etishdir. Hududlarda turistik xizmatlarni rivojlantirish uchun mahalliy aholi bilan ishlash mexanizmlarini shakllantirish va ularga tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish kerak. Turizm sohasida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar orqali aholining iqtisodiy faolligini oshirish va turizm xizmatlarining diversifikatsiyasiga erishish mumkin. Shu bilan birga, mehmonxona va turistik xizmatlar ko'rsatishda ekologik yondashuvga alohida e'tibor qaratish zarur. Zamonaviy dunyoda barqaror turizmga talab oshib borayotgani hisobga olinsa, yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik mas'uliyatni oshirish orqali mehmonxona biznesining jozibadorligini oshirish mumkin. Bu, bir tomondan, atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam bersa, boshqa tomondan, xalqaro sayyohlar orasida ijobiy imidj yaratadi. Davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikni rivojlantirish ham mexanizmlarni takomillashtirishning muhim qismidir. Xususiy sektor uchun imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va boshqa rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar orqali ulardan investitsiyalarni jalb qilish va infratuzilmani yaxshilash imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Bu turizm va mehmonxona xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytiradi va xizmat ko'rsatish darajasini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarni izchil joriy etish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali turizm va mehmonxona xizmatlarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga erishish mumkin. Bu jarayon xizmat ko'rsatish sifatini sezilarli darajada yaxshilash, mijozlar uchun qulay va shaxsiylashtirilgan tajribalar yaratish hamda operatsion jarayonlarni optimallashtirish orqali kompaniyalarning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, turizm sohasida yangi texnologiyalarni qo'llash nafaqat iqtisodiyotda qo'shimcha daromad manbalarini yaratadi, balki global miqyosda innovatsion yondashuvlar orqali O'zbekiston turizmining o'ziga xosligini targ'ib qilish imkoniyatini beradi.

¹ https://renessans-edu.uz/files/books/2024-12-01-09-08-10_b82450878a8561fade949a979139036a.pdf?utm_source

Milliy turizm brendini shakllantirish orqali O‘zbekiston nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosidagi sayyohlar uchun ham jozibador yo‘nalishga aylanadi. Bu esa turizm tarmog‘ining iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga, infratuzilmani rivojlantirishga va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga zamin yaratadi. Raqamli texnologiyalarni strategik va izchil amalga oshirish, shuningdek, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali mamlakatning turizm salohiyati yanada yuksak darajaga ko‘tarilishi mumkin. Bu jarayon milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga xizmat qilib, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning muhim omili bo‘lib qoladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-158-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-238-sonli qarori.
4. Xamitov M.X. Mehmonxona xo‘jaligida servis sifatini baholash va mijozlarning mamnunlik darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash //Servis. 2022, Maxsus son. B. 147-154.
5. Xamitov M.X. Mehmonxona xo‘jaligida servis faoliyatni tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari // “Uchinchi renessansni shakllantirish sharoitida xizmat ko‘rsatish va ta’lim xizmatlari sohalarini rivojlantirish muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Samarqand 2022 yil 18 19 fevral VI qism. 73-77 b.
6. N. Abdulbekova O‘zbekistonda Smart-turizmini rivojlantirishning ahamiyati. Innovations in technology and sciens education – SJIF 2023: –5.305 volume. –2 ISSUE. –15 671-675 b.
7. Buhalis, D. (2003). eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management. Pearson Education.
8. Law, R., Leung, R., & Buhalis, D. (2009). "Information Technology Applications in Hospitality and Tourism: A Review of Publications from 2005 to 2007." Journal of Travel & Tourism Marketing, 26(5-6), 599-623.
9. Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). "Smart Tourism: Foundations and Developments." Electronic Markets, 25(3), 179-188.

<p>А.Мир-Джафарова Совершенствование организационно-экономического механизма туристических и гостиничных услуг в условиях цифровизации экономики</p>	<p>A.Mir-Djafarova Improving the organizational and economic mechanism of tourism and hospitality services in the digitalization of the economy</p>
<p>Аннотация. В данной статье анализируются вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов туристических и гостиничных услуг в процессе цифровизации экономики. Изучено влияние цифровых технологий на туристическую сферу, современные организационно-экономические механизмы и уровень их эффективности. Также проанализировано текущее состояние процесса цифровизации в сфере туризма и гостиничного хозяйства в Узбекистане, приведены проведенные реформы и мероприятия.</p> <p>Ключевые слова: цифровая экономика, туризм, гостиничные услуги, цифровизация, организационно-экономические механизмы, онлайн-услуги, электронная коммерция.</p>	<p>Abstract. This article analyzes the issues of improving the organizational and economic mechanisms of tourism and hotel services in the process of digitalizing the economy. The impact of digital technologies on the tourism sector, modern organizational and economic mechanisms, and their efficiency levels have been studied. The current state of the digitalization process in the tourism and hotel industry in Uzbekistan is also analyzed, and the reforms and activities carried out are presented.</p> <p>Keywords: digital economy, tourism, hotel services, digitalization, organizational and economic mechanisms, online services, e-commerce.</p>

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.